



CHET TILINI O'RGANISHNING FOYDALARI

*Nargizaxon Obidova Olimjon qizi*

*Qo'qon Universiteti Andijon Filiali*

*Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi talabasi*

*E-mail: [obidovanargiza894@gmail.com](mailto:obidovanargiza894@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada chet tillarini o'rganishning afzallik tomonlari va usullari, uning o'gzaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llash haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xorijiy tillar, usullar, yozma shakli, adabiy me'yor, kognitiv zaxira, daromad, foydali unsurlar, tadqiqotlar natijasi, matematik ilg'orlik, ona tili, sayohat, tarixni anglash, yosh kadrlar maqsadlari.*

**Abstract:** *This article discusses the advantages and methods of learning foreign languages, their correct use in oral and written speech.*

**Key words:** *foreign languages, methods, written form, literary norm, income, useful elements, research results, mathematical progress, native language, travel, understanding of history, goals of young personnel.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются преимущества и методы изучения иностранных языков, а также их правильное использование в устной и письменной речи, когнитивный резерв, доход, полезные элементы.*

**Ключевые слова:** *иностранные языки, методы, письменная форма, литературная норма, результаты исследований, математический прогресс, родной язык, путешествия, понимание истории, цели молодых специалистов.*

Bugungi kunda barcha davlatlarda juda katta o'zgarishlar bo'lmoqda, xususan O'zbekistonda ham. Yangi rivojlanib borayotgan O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rganish, yosh avlod uchun kelajakda mustahkam poydevor o'rnatish kabidir. Bugungi globallashuv davrda xorijiy tillarni bilish insonlar uchun shunchaki



bir hobbi emas, balki muvaffaqiyatlarga olib boruvchi bir yo'ldir. Insonlar har bir yangi tilni o'rganar ekan, bu yo'lda bir qancha qiyinchiliklar va katta-katta sinovlarga duch kelishi tabiiy hol. Ammo bir yangi tilni bilish uning dunyoqarashini kengaytiradi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va eng muhimi aqliy salohiyatini yangi bosqichga ko'taradi.

Zamonaviy tilshunoslikning otasi hisoblangan, amerikalik mashxur tilshunos, faylasuf, kognitiv olim Avram Noam Chomskiy: "Tilni bilish insonda tug'ma qobiliyat sifatida mavjud bo'lib, til o'rganish tabiiy jarayon" ekanini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, insonlarda shunday bir qobiliyat bo'ladiki, har bir yangi o'rganishda o'zi uchun eng qulay bo'lgan usullardan foydalangan holda osongina o'rganib oladi. Tilni o'rganishda eng muhim bo'lgan jihat shuki, insonlar so'zlarni og'zaki talaffuz qilish va undan nutqda o'rinli foydalana olishi hisoblanadi. Tillar hamma joyda – ilm dargohlarida, gazetalarda, jurnallarda va hatto ijtimoiy tarmoqlarda. Fakt o'rnida qo'llash kerakki, odamlar chet tilida qaror qabul qilganda hissiyotlarga kamroq berilib, aniq, mantiqiyroq va foydali tanlov qilishadi. Buning ustiga, ko'proq tilni bilgan odamda aniqlik hissi yuqoriroq bo'ladi. Misol uchun, Amerikalik olimlar tadqiqot o'tkazib, bir qancha tillarni biladigan odamlarga so'zlarni tushunish bo'yicha topshiriqlar beradi va ularning tomografini aniqlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bu kabi insonlar, bir tilda gapiradigan insonlardan ko'ra, o'xshash so'zlarni yaxshi aniqlay oladi va bunday insonlar chalg'ituvchi omillardan uzoqlashib, ko'proq bitta vazifaga diqqatini ko'proq qaratishadi.

Bundan tashqari, Ellen Bialystok yangi bir tilni o'rganish inson miya faoliyatini qarishini bir necha yillarga kechiktirishini va miyada "kognitiv zaxira" hosil qilishini isbotlagan. Shuningdek, u xotiraning mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Tilni o'rganish uchun yoshning ahamiyati yo'q va qaysi yoshda bo'lishdan qat'iy nazar tilni o'rganish xotira funksiyasi uchun juda foydali hisoblanadi va bo'sh vaqtini foydali o'tkazishiga yordam beradi. Xorijiy tilni ko'proq bilgani sayin inson har qanday yangi axborotlarni eslab qola oladi. Bu esa vaqtni tejaydi hamda matematik qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. 2007-yil Amerika Qo'shma



Shtatlarida Chet tillarni o'qitish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy tillarni o'rganayotgan bolalar maktab dasturidagi Matematika faniga ko'proq vaqt ajratgan va chet tillarini umuman o'qimaydigan o'quvchilardan ko'ra ularning natijalari anchagina ijobiy natija ko'rsatishgan. Bundan ko'rinadiki, boshqa til asoslarini o'rganish miyada mantiqiy fikrlashni ishga tushiradi

Xorijiy tillarda so'zlashuv tamoyillarini, mohiyatini, strukturasi va o'zlashtirish prinsiplarini o'rganish kerak. Chet tillarini o'rganish uchun bir nechta qoidalar mavjud:

**1-qoida.** So'zlarni o'rganayotganda, u so'zni yakka tartibda emas, balki ayrim sinonim va iboralar bilan o'rganish;

**2-qoida.** Har xil til o'qituvchilardan emas, xorijlik o'qituvchilarning video darsliklaridan va podkastlaridan o'rganish;

**3-qoida.** Bir kunda kamida o'rganmoqchi bo'lgan tilda bitta hikoya tuzish, kitob o'qish va o'sha tilda kino ko'rish;

**4-qoida.** O'zi bilan o'zi mashq qilish, ya'ni inson tuzgan hikoyasini qayta-qayta o'qib, kundalik ishlarini o'sha tilda gapirishga harakat qilish;

**5-qoida.** Bilim ulashish, ya'ni o'rganayotgan so'zlarni yaqinlariga o'rgatish va ular yordamida sodda gaplar tuzish.

Bu qoidalar yordamida insonlar osongina, qisqa muddatda yangi tilni o'rganib olishlari mumkin. Fakt o'rnida shuni qo'llash mumkinki, chet tillarni o'rganishning yana bir o'ziga xos metodikalari mavjud bo'lib, talabalar ayrim ko'nikma va malakalarni bu metodlar orqali o'zlashtiradilar:

1. Nutq faoliyati turlari (4 asosiy);
2. Til material (leksika, grammatika, fonetika);
3. Lingvistik bilimlar (leksikologiya, grammatika, fonetika)
4. Chet tilini o'qitish metodikasi (pedagogik amaliyot).

Hozirgi raqamlashib borayotgan davrda insonlar o'rganishning eng oson va sifatli yo'lini tanlashmoqda va ularga bu tanlov ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.



Xorijiy tillarni o'rganishning afzallik tomonlari juda ko'p bo'lib, ulardan biri – kariyera va daromad. Buyuk olim Wilhelm von Humboldt aytganidek: “Til sayohatlar va dunyoni tanish imkoniyatini ham beradi, xorijiy tilni bilish orqali inson dunyoni taniydi, chunki til tafakkurni shakllantiradi”. Sayohat – tajriba, tajriba esa daromad manbai hisoblanadi. Inson sayohat davomida ko'p joylarni ko'radi va odamlar bilan tanishadi. Bu esa o'rganayotgan tilni chuqurroq o'rganishga va erkin muloqot qilishga imkoniyat yaratadi. Yillar o'tgani sayin u bu tilni mutaxassisiga aylanadi. 2024-2025-yillar hisobotiga ko'ra, ayrim davlatlarda tilni bilgan mutaxassisga korxonalar ishlari va biznes loyihalarda talab yuqori bo'lgan va ularning ko'rsatkichi 35%ga oshgan, albatta bu tabiiy hol, chunki mahsulotlarni chetga ekspert qilish uchun ham o'sha davlatning tilini, qadriyatini bilish juda muhim va buning orqasidan yaxshigina daromad topsa bo'ladi. Misol uchun, xorijiy tilni bilish maoshning o'rtacha 2% dan 5% gacha, ayrim tillarda esa 10% dan 20% gacha oshishiga sabab bo'lgan. Demak, til o'rganish aqliy faoliyat bilan birga daromadni ham oshiradi.

Chet tilida muloqot qilish bilan birga uni to'g'ri va yozish me'yorlariga tayangan holda yozish ham bir muvaffaqiyat kaliti va yangi mahorat hisoblanadi. To'g'ri yozilgan elektron xat, loyiha ishi va hisobotlar insonning professional ekanligini bildiradi va hamkorlarining ishonchini mustahkamlaydi. Yangi tilda gaplashish uchun insonlar kuniga 10 yoki 15ta so'zlarni yod olishi va o'sha tilda kichik podkastlarni yoki kinolarni ko'rishi kerak bo'lsa, o'sha tilda to'g'ri yoza olishni o'rganish uchun esa har kuni kamida bitta qisqa hikoya tuzish yoki 5-10 daqiqa kundalik yozishi kerak. Ham o'qib, ham yozish o'rganishning tez va sifatlarini oshiradi. Imlo xatolarsiz yozishning ham bir qancha metodlari bor, bulardan biri, “**Lang-8**”, yoki “**HiNative**” kabi platformalarda ishlash. Ya'ni, insonlar yozilgan hikoya yoki qisqa matnni bu platformaga yuklashadi, platformalardan esa til egalari (native speakers) ularni tekshirib xatolarni tuzatishga yordam beradi. Xatolar ustida ishlash, rivojlanishning eng tez yo'li hisoblanadi.



Umuman olganda, xorijiy tillarni bilish va o'rganish hayot tarzimizga yangi kashfiyotlar va muvaffaqiyatlarni olib kiradi. Chet tilini bilish bu oddiygina bir tilni bilish emas, balki inson o'zi erishishni xohlagan va erishmoqchi bo'lgan maqsadlariga katta bir qadam qo'yish hisoblanadi. Xorijiy tilni o'rganib, o'z ona tilimizni qadrlay boshlaymiz, uning mohiyatini, tarixini, kelib chiqishini asta sekin anglaymiz va uning qanchalar go'zal til ekanini yana bir bor his qilamiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bialystok, E., Craik, F. I., & Freedman, M. (2007) "[Bilingualism as a protection against the onset of symptoms of Ikki dementia](#)". (tillilik demensiya simptomlarini kechiktiruvchi omil sifatida).
2. The Economist (2014/2025 tahlillari). "Johnson: What is a foreign language worth?" (Til bilishning umrbod qo'shimcha daromad keltirishi bo'yicha hisob-kitoblar).
3. Hellerstein, J. K., & Neumark, D. (2003). "Ethnicity, Language, and Workplace Segregation". (Mehnat bozorida tilning roli).
4. Forbes (2024-2026 hisobotlari). "Why Multilingualism Is The Most In-Demand Soft Skill".
5. Jalolov, J. J. (2012). "[Chet tili o'qitish metodikasi](#)". (Darslik, Toshkent).

### Ilovalar:

1. [Fledu.uz](#) jurnali maqolalari (2020-2025). "Xorijiy tillarni o'rganishning ijtimoiy-psixologik aspektlari".
2. Ziyoz.uz portali. "Til bilgan — el bilar" mavzusidagi ilmiy-ommabop maqolalar to'plami.
3. Inlibrary.uz (Elektron kutubxona). Chet tili va kognitiv rivojlanishga doir dissertatsiyalar (2024-yilgi yangilangan materiallar).
4. [Daryo.uz](#) Xorijiy tillarni o'rganishning foydalari